

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI TA‘LIM SIFATINI NAZORAT QILISH DAVLAT  
INSPEKSIYASI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

“TASDIQLAYMAN”

\_\_\_\_\_ A.Umarov.

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

2020\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

2020\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

Ro‘yhatga olindi:

2020 - yil “\_\_”

**UZLUKSIZ TARBIYA FANI  
DASTURI**

**TOSHKENT – 2020**

**Tuzuvchilar:**

Xodjayev B.X - Umumiy pedagogika

kafedrası, professor.

Muxsiyeva A.Sh. – Pedagogika

kafedrası, dotsent

Jabborova Z. – Xalq ta'limi vazirligi  
huzuridagi Respublika ta'lim markazi  
tarbiya fani metodisti

Paximova S. - МТМРМҚТМОИ kata  
o'qituvchisi

**Avazova M.J.** - УзМУ қошидаги  
С.Х.Сирожиддинов номли академик  
лицейи Давлат ва ҳуқуқ асослари  
фани ўқитувчиси

## **O'quv fanining dolzarbligi va uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni**

Bugungi globalashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'yimoqda.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasida uzluksiz «Tarbiya» fani davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Fan yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi.

Shuningdek, fanda belgilangan yo'nalishlar mamlakat yoshlarini ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

### **O'quv fanining maqsadi va vazifalari**

**Fanning maqsadi** – uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarda ijtimoiy kompetentsiyalarni tarkib toptirish, yuksak ma'naviy axloqiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarda umummadaniy, ijtimoiy, kommunikativ kompetentsiyalar hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish layoqatini shakllantirish; tarbiyaga doir xulq-atvor meyorlarini kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirishdan iborat

### **Fan bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati natijalari**

***Maktabgacha ta'lim tizimi uchun:***

o'z tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish;

o'z xatti-harakatlarini axloqiy talablarga muvofiq boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish;

shaxsiy fazilatlar asoslarini paydo qilish;

ijtimoiy motivlar va milliy an'analarga qiziqish, o'zini o'zi namoyon qilishga intilishni tarkib toptirish;

muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini paydo qilish;

o'ziga o'zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma'naviy-axloqiy munosabatni shakllantirish;

***Umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimi uchun:***

har bir bosqichda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

o'quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma'naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish;

faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

dunyo dinlarining ko'p asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida zo'ravonlik, terrorism va ekstremizm g'oyalari targ'ib etilmasligini tushuntirish;

shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma'rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

ma'naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo'shliqlar mavjud bo'lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo'lgan yoki profilaktik ro'yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash tizimini takomillashtirish.

***oliy ta'lim tizimi uchun:***

kasbiy faoliyatga qo'yiladigan malaka talablarga muvofiq kompetensiyalar, baholash tartibi va o'quv dasturlari;

«Tarbiya» fani bo'yicha malaka talablari, o'quv fanlari dasturlari mazmunini bilish va ulardan foydalana olish;

gender stereotiplar, valeologik omillarni e'tiborga olgan holda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish;

tarbiyaviy jarayon sifatini oshirishga xizmat qiladigan kompyuter va multimedia texnologiyalari, virtual ta'lim resurslari, masofaviy va tarmoq texnologiyalaridan foydalana olish;

tarbiyaviy ishni tashkil etishga doir me'yoriy hujjatlar, didaktik-metodik materiallar (mediatadbir ssenariylari, muammoli vaziyatlar, ishbop o'yinlar, keyslar banki, ijodiy topshiriqlar, trening mashg'ulotlari ishlanmalari)ni tayyorlay olish;

innovatsion tarbiya texnologiyalarini (refleksiv, vitagen, suggestiv, artterapiya, ishbop o'yinlar, neyrolingvistik dasturlashtirish, germenevtik) qo'llay olish;

milliy va ilg'or xorijiy tarbiya modellaridan samarali foydalanish;

tarbiyaning innovatsion metodlarini qo'llash, virtual hamjamiyatlar faoliyatini samarali tashkil etish;

zamonaviy tarbiya konsepsiyalari, tarbiya sohasidagi ilmiy yangiliklar, mediamatlar va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish;  
tarbiyaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan mahorat darslari, treninglar, vebinarlar tashkil etish va moderatorlik qilish;  
virtual klublarni tashkil etish va jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish;  
tarbiya jarayoniga doir izlanishlar, ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqishga doir tadqiqotchilik ko'nikmalarining rivojlantirish.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI UCHUN "TARBIYA" MASHG'ULOTLARI DASTURI**

### **Maktabga tayyorlov guruhida "Tarbiya" ta'limiy faoliyati uchun subhat mavzulari va ularning mazmuni**

#### **Mening qadrdon O'zbekistonim**

Bolalarning tug'ilib o'sgan Ona-Vatani, shahar, qishlog'i, mahallasi, xalqi, urf-odatlarini, tarixiy joylari haqida ilk tushunchalar berish.

O'zbekiston Respublikasi ramzlari: bayroq, gerb, madhiya bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan hurmat bilan qarashni tarbiyalash.

O'zbekiston Respublikasining ramzlari: bayroq, gerb, madhiya mazmun-mohiyatini anglash va hurmat bilan qarash zarurligi haqida tushunchalar berish.

#### **Mening shahrim, mening mahallam**

Bolalarning tug'ilib o'sgan ona shahri, qishlog'i, mahallasi, tarixiy joylari haqida ilk tushunchalar berish.

Uy manzilini to'liq aytishga o'rgatish. Shahridagi, hududidagi tarixiy obidalar, qadimiy yodgorliklar, zamonaviy inshootlar haqida tushuncha berish. Bolalarda ona shahriga nisbatan mehr tuyg'usini rivojlantirish va ona shahri haqidagi fikrlarini nutqda ifodalay olish malakasini takomillashtirish.

#### **Men va mening oilam**

Oila tushunchasiga izoh. Oila muqaddas jamoa ekanligi, oilada kattakichikning ahil yashashlari, oila boshliqlari buva-buvi, ota-ona ekanligi. Oilada ota-ona, aka-uka, opa-singillarning bo'lishi. Ahil oilalarni rasmlar orqali zoqlash. Oilada bolalarning yashash tarzi, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amho'r bo'lish. Oilada hamjihatlik, ahillik, o'zaro yordam oila baxtining asosi ekanini uqtirish. Oila a'zolari: ota-ona, aka-uka, opa-singil, qon-qarindoshga bo'lgan hurmat hissini tarbiyalash.

#### **Men va mening do'stlarim**

Bolalarga "O'rtoqlik" tushunchasiga izoh berish. Bolalar bilan ahil bo'lib o'ynash, o'zaro yordam berish va ko'maklashish- bu o'rtoqlik ekanligi. Bolalar

hamjihat bo‘lib o‘ynayotgan yoki mehnat qilayotgan holatini rasmlar orqali izohlash. Bolalarning bir-biriga mehribon, ahil, g‘amxo‘r bo‘lishlarini tushuntirish. O‘rtoqlari bilan yonma-yon o‘ynay olishi, o‘yinchoqlarini boshqa bolalar bilan o‘rtoqlashishi, tengdoshlarining kayfiyatini, xursand yoki xafa ekanligini anglash va ularga to‘g‘ri muomala qilish. “Xafabo‘lma, men senga yordam beraman” kabi gaplarni aytishga o‘rgatish. Mehnat faoliyatida o‘rtog‘iga yordam berish, o‘rtog‘ining yutuqlaridan quvonish, boshqalarning mehnati natijalariga hurmat bilan qarash kabi ezgu xislatlarni shakllantirish. Mavzuga mos hikoya va rivoyatlar o‘qib berish.

### **Sog‘lom tanda – sog‘lom aql**

Bolalarga tozalik-bu salomatlik ekanligini tushuntirish. Salomatlikning bosh mezoni toza, ozoda yurish, ertalab uyqudan turganda yuz-qo‘llarni yuvish, keyin sochiq qaartish. Yotish oldidan tishlarni tozalash, qo‘l-oyoqlarni yuvish, sochiq va dast ro‘moldan to‘g‘ri foydalanishni tushuntirish. Bolalarga qo‘l yuvish, tish yuvish qoidalarini tushuntirish. Qo‘l, oyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarni farqlashga odatlantirish. Salomatlik haqida allomalar o‘g‘itlari va rivoyatlaridan o‘qib berish.

### **Vatan himoyachilari kuni**

Bolalarning O‘zbekiston harbiy qo‘shinlari va ularning vazifasi, 14-yanvar harbiylarning kasb bayrami ekanligi haqida tasavvurlarini kengaytirish. Bolada Vatanga muhabbat, uni ko‘z qorachig‘idek saqlash hissini tarbiyalash kabi tushunchalarni davom ettirish.

Bolalarda harbiy qo‘shinlarga nisbatan qiziqish uyg‘otish orqali botirlik, jasurlik, vatanparvarlik tuyg‘usini singdirib borish.

Bolalarga tartib-intizom qoidalarini o‘rgatishda davom etib, yaxshi, yomon, mumkin emas degan tushunchalarini badiiy adabiyot orqali tushuntirib borish.

### **Men va salomatlik**

Bolani sog‘lom turmush tarziga odatlantirish. Ularga odamning ichki a‘zolari (yurak, jigar, oshqozon o‘pka) va ularning joylashuvi, vazifalari haqida (inson o‘pka orqali nafas oladi, havo qanchalik toza bo‘lsa, o‘pka shunchalik yaxshi ishlaydi. Yurak inson hayoti uchun eng kerakli a‘zoldan hisoblanadi. U ishlayotganini bildirib doim “duk-duk” uribturadi. Jigar qonni tozalaydi. Biz istemol qilayotgan ovqat oshqozonga tushadi va hazm bo‘lishi haqida ma‘lumot berish. Bu a‘zolar tananing qayerida joylashganini ko‘rsatish va nomini aytishga o‘rgatish.

Bolaning sog‘lom hayot kechirishi (ozodalikka va kuntartibiga rioya qilish, jismoniy mashqlar bajarib, tanani chiniqtirish va sog‘lom ovqatlanish) haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash.

### **Xushmuomalalik alifbosi**

Inson odobini, xulq-atvorini ko‘z-ko‘z qiladigan til xususida, so‘zlash qoidasi haqida tushuncha berish. Bolalarni shirin so‘z bo‘lishga da‘vat etish. Avvalo shirin so‘z nima ekanini tushuntirish. Shirin so‘zlik-bu kishining dilini yayratadigan, ko‘nglini ko‘taradigan qilib so‘zlash. Og‘izdan doimo yaxshi so‘z chiqishga harakat qilish. Avval o‘yla, keyin so‘yla. Inson xatoni ko‘proq o‘z tili bilan sodir qilishi. Mavzu bo‘yicha Abu Ali Ibn Sinoning so‘zlaridan keltirish. Mavzuga bog‘liq hikoya o‘qib berish.

### **O‘zbekistonning buyuk arboblari**

Bolani tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti hamda ijodi bilan tanishtirishni davom ettirish. Yoshavlodni ona-Vatanga, ota-bobolar merosi va pand-nasihatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash.

Ulug‘ allomalar: Alisher Navoiy, Al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, ulug‘ sarkardalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi ilk tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash. Bolalarni ota-bobolarimizni tanishga, ulardan faxrlanishga da‘vat etish.

### **Telefonda gaplashish odobi**

Bolalarni telefonda so‘zlashish qoidalari bilan tanishtirish. Telefondan qo‘ng‘iroq ovozi eshitilganda “Labbay” deb go‘shakni ko‘tarish, suhbatdosh bilan albatta, “Assalomu alaykum” deb salomlashish, suhbat chog‘ida “Labbay”, “Marhamat”, “Uzr” kabi so‘zlarni ishlatish. Telefon orqali gapirayotganda, qisqa va aniq gapirishga o‘rgatish.

### **Odob salomlashishdan boshlanadi**

Bolalarga “Assalomu alaykum” –senga salomatlik tilayman, degan ma‘noni anglatsa “Vaalaykum assalom” –“Sizga ham salomatlik tilayman” ekanligini tushuntirish. O‘zbekona milliy salomlashishning o‘ziga xosligi: tabassum, ochiq chehra, samimiy mehr bilan bir-biriga boqish, “Assalomu alaykum” deb salomlashganda ochiq chehralik va tabassum bilan salom beruvchi, alik oluvchilarning tovushlari bir-birlariga eshitarli bo‘lishi kerakligi, agar birkishiga ikkikishi bir vaqtda salom bersalar, ularning har biriga alohida-alohida javob qaytarishi lozimligini tushuntirish. Salom-alikning mohiyatini chuqur tushunib etishga, qadriga eta olish, to‘g‘ri salomlashishga o‘rgatish. “Assalomu alaykum” iborasi haqidagi hikoyasidan o‘qib berish.

### **Qiz bolalarga xos fazilatlar**

Qiz bolalarni ota-onasiga, oshxona ishlariga yordam berishga odatlantirish. Qizlarga dangasalik yomon illat ekanligi haqida tushuncha berish. Qizlarni yoshlikdano‘z-o‘zini eplashga, uy-ro‘zg‘or ishlarida ota-onalariga yordam berishga odatlantirib borish, ularning yordami ota-onalarga quvonch olib kelishi haqida tushuncha berish.

Qizlarni saranjom-sarishta bo‘lishga o‘rgatish: o‘yinchoqlar, kitoblardan va mehnat qurollaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, buyumlarniasrash, ardoqlash

kerakligini tushuntirish. Bolalarda buyumlarga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash. Mavzu bo'yicha hikoya va rivoyat o'qib, uni sharhlash.

### **O'z-o'zingga xizmat qilishni o'rgan**

Bolalarga har kimning o'z xizmati borligi, ularga o'zlaridan kattalarga ish buyurmaslik kerakligini tushuntirish. Bolalarga o'zini parvarishlash ko'nikmalarini shakllantirish: mustaqil yuvinish, tozalikka rioyaqilish, ozodalikka va tartibga odatlantirish, tashqi ko'rinishdagi kamchilikni o'z vaqtida bartaraf qilish, o'z-o'ziga xizmat qilish jarayonida bolada uyushqoqlikni va maqsadgaqaratilganlikni, madaniy axloq ko'nikmalarini shakllantirish.

Bolalarda mustaqil ravishda xonasini yig'ishtirish va o'yinchoqlarini o'z joyiga terib qo'yish, o'rin-joylarini yig'ishtirish, ko'rpa-yostiqlarining jildini kiydirish, choyshablarni tekislab chiqish, ularni almashtirishda kattalarga yordam berish, shaxsiy buyumlarini toza saqlash ko'nikmasini mustahkamlash.

### **Qush va jonzotlarga g'amxo'rlik**

Bolalarga uy hayvonlari mushuk, kuchuk, sigir, qo'y, echki, quyon, qushlardan musicha, chumchuq haqida tushunchalarini mustahkamlash hamda jonzotlarni asrash va avaylash har bir insonning vazifasi ekanligini tushuntirish. Ularni parvarish qilish, ochlikdan qutqarish har birimizning vazifamiz ekanligini tushuntirish. O'.Umarbekovning "Mehr" hikoyasini o'qib berish.

# UMUMIY O'RTA TA'LIM BO'YICHA "TARBIYA" FANI DASTURI

## I SINIF

### I bob. MEN O'ZBEKISTON FARZANDIMAN

(13 soat)

**Vatan ishonchi.** Prezident sovg'asi haqida suhbat. Bolalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida videofilm namoyishi. O'quvchilarning kelajak maqsadlarini shakllantirish.

**Mening orzuim.** Mening orzuim va imkoniyatlarim. O'quvchilarning maqsadlarini amalga oshirishda oila tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlar.

**Salomlashish odobi.** Salomlashish odobning muhim belgisi. Salomlashish haqida turli vaziyatlar. To'g'ri salomlashish, kim birinchi salom beradi? Qayerda salom berish mumkin emas?

**Bilim olish sirlari.** Nima uchun bilimli bo'lish kerak? Ustozga hurmat. Kitob va o'quv qurollardan foydalanish qoidalari.

**Mening sevimli ertak qahramonlarim.**

**Maktabim – gulshanim.** Mening maktabim, maktabdagi sharoitlar, "Maktabning egasi kim?" hikoya. Maktab mulki va uni asrash mas'uliyati.

**Har narsaning o'lchovi bor.** Vaqtning uvoli. Kun tartibiga rioya etish intizomlilik belgisi Isrof bo'lgan suv qadri. Gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi - milliy boylik. Bir kunlik harajat.

**Mening mahallamda yashash yaxshi.** Muammoli vaziyatlar asosida bolada masuliyat, majburiyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish. "Bir bolaga yeti mahalla ota-ona", "Qo'shning tinch, sen tinch".

**Notanish kishi kim?** Notanish kishilar bilan muloqotga kirishish. Yaltiroq quticha kimniki? (Begonalar bilan gaplashish, ulardan sovg'a va turli narsalarni olishning xavfi haqida suhbat). Xavfli vaziyatlarda qaysi telefon raqamiga murojaat qilish.

**Xavfli vaziyatlarda harakat qilish.** Turli xavfli vaziyatlar haqida ma'lumot berish asosida o'zini tutish qoidalarini o'zlashtirish.



**Takrorlash. «Zukko o‘quvchi» o‘yini.**

## **II BOB. GO‘ZAL XULQ - INSON KO‘RKI**

**(20 soat)**

**Sehrli so‘zlar.** Sehrli so‘zlarning qudrati. Oila a‘zolari va do‘stlarga muomala qilish. Telefonda so‘zlashish odobi.

**Qalb oynasi.** Fikrini ifodalash. Qo‘l harkatlari, yuz ifodasi (kulgi, kinoya va jahl), ovoz balandligi.

**Telefondan foydalanish qoidalari.** Telefonva kompyuterdan foydalanish odobi (oila a‘zolari va do‘stlarning telefonidan foydalanish qoidalari).

**Tashqi ko‘rinish odobi.** Qaysi libos, oyoq kiyim qaerga kiyiladi? Taqinchoqlar qaerga va qachon taqiladi? Mening fikrim: «Agar taqinchoqlar (soat, zirak, uzuk, soch to‘g‘nog‘ichi)dan foydalanilsa...», necha yoshdan taqish mumkin?

**Yaxshi va yomon odatlar.** Nima yaxshi-yu, nima yomon? Xalq ertaklari asosida suhbat. Qaysi odatlar yaxshi? Yomon odatlardan qanday qutilish mumkin?

**Sog‘ tanda sog‘lom aql.** Salomatlikni saqlash. Qo‘l yuvish qoidalari Sog‘lik uchun zararli odatlar.

**Dasturxon atrofida.** Dasturxon atrofida o‘tirish odobi va oshxona jihozlari: sochiq, sanchqi, qoshiq, pichoqdan to‘g‘ri foydalanish.

**Jamoat joylarida o‘zini tutish.** Jamoat transportida, do‘konlarda, kasalxona va madaniyat maskanlarida, ko‘chalarda kim-kimga yo‘l beradi?

**Yakunlovchi dars.**

## **II SINF**

### **I bob. IMKONIYATLAR ESHIGI**

**(4 soat)**

**Olamni mahliyo aylagan diyor.** Mening maqsadlarim. Menga berilayotgan imkoniyatlar, yaratilgan sharoitlar. Ajdodlarimiz o‘z maqsadlariga qanday erishganlar?

**Imkoniyatlar va ehtiyojlar.** Imkoniyat va ehtiyoj tushunchalari.ilmli bo‘lmoq haqida.

**Men qanday inson bo‘lishim kerak.** Maqsad sari intilish.ota-oanmining orzusi. O‘quvchini o‘z tengdoshlarining yutuqlariga havas qilish va ularga tenglashishga undash.

### **II bob. OILADAGI MUNOSABATLAR**

**(3 soat)**

**Qarisi bor uyning - parisi bor.** Oila haqida. Oilada bobo va buvilar bilan munosabat odobi. Kattalarga hurmat va ehtirom ko‘rsatish.

## **Amaliy mashg'ulot. Bizning oila**

### **III bob. MEN VA JAMIYAT**

**(4 soat)**

**Maktabim – qadrdonim.** Maktab jihozlari kimniki? Eng ulug' maskan. Maktabdagi har bir kitob va boshqa buyumlarni asrab-avaylash lozimligi.

**Amaliy mashg'ulot.** Tengdoshlarim yutuqlari.

**Kim bo'lsam ekan?** Kasb tanlash va bilim olish haqida. Bilim ol, hunar tanla.

### **IV bob. TARTIB - INTIZOM HAMROHING BO'LSIN HAR ON**

**(9 soat)**

**Inson hayotida qoidalarning o'rni.** Qoidalar nima uchun kerak? Qoidalar va ularga amal qilish. Qoidalarni kim yaratgan? Bizning hayotimizdagi qoidalar. Sog'lom bo'lish qoidalari.

**Jamoat transportida.** Yo'l harakati qoidalari qanday paydo bo'lgan. Piyoda - umring bo'lsin ziyoda.

**Amaliy mashg'ulot.** Belgilar nimadan ogohlantiradi?

**Sog' tanda sog'lom aql.** Salomatlik tuman boylik. Sog'liq qoidalari haqida.

**Xavfsizliging o'z qo'lingda.** Xavfsizlik, ogohlik, hushyor bo'lish. Xavfsizlik qoidalarni bilamizmi?

**Yaxshi va yomon odatlar.** Yaxshi va yomon odatlar haqida. Yomon odatlardan qutulish.

**Yolg'onning umri qisqa.** Rostgo'ylik, to'g'ri so'zlilik inson ko'rki. Yolg'onning oqibati haqida.

**Birovning haqqi.** O'.Hoshimovning "Girgitton buvining yapon nabirasi" hikoyasi asosida.

**Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on.** Intizom vaqtga amal qilishdan boshlanadi. O'quv qurollari va o'ziga tegishli bo'lgan buyumlarini tartibli saqlash. Shaxsiy gigiena va kun tartibiga rioya qilish.

### **V bob. HAMJIHATLIK – DAVLAT, AHILLIK – HIKMAT**

**(14 soat)**

**Birlashgan o'zar.** Hamkorlik(hamjihatlik, birdamlik, ahillik). Jamoada o'zni tutish. Mas'uliyat va majburiyat.

**Amaliy mashg'ulot. Hurmat qozinish.** Hurmatga erishishning yo'llari.

Muloqot qilish, eshitish, tinglash, fikr bildirish qoidalari. Suhbatdoshga samimiy munosabatda bo'lish, tabassum qilish.

**Insonparvarlik.** Mamlakatimizda yashaydigan turli millat va elatlar, ularning qadriyat, marosimlariga hurmat ko'rsatish odobi.

**Uyimizga mehmon keldi.** Mehmon kutish va mehmonda o'zini tutish odobi. "Tomga chiqmagan "quloqsiz" bola" hikoyasi haqida suhbat.

**Amaliy mashg'ulot.** Mehmon va mezbon odobi haqidagi hikoyalar asosida.

**Do'stlik oliy fazilat.** Do'stlashish odobi va qoidalari. "Uy vazifasini ko'chirtirmagan qiz" hikoyasi.

**Sovg'a berish va sovg'a olish odobi.** Tug'ilgan kunga borish. Kimga qanday sovg'a beriladi? Do'stlarga tabrik yo'llash.

**Ziyorat odobi.** Ziyorat qilish. Ziyorat qilishning tartib-qoidalari haqida.

**Yozgi ta'til – bir yilga tatir.** Vaqt qadri. Suv havzalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalari.

### III SINF

#### I bob. ORZULAR MAQSADLARGA YETAKLAYDI

(4 soat)

**Munosib farzand.** Men katta bo'lsam. O'qishdan maqsad nima bo'lishi kerak? Zamonaviy kasblar haqida. O'quvchilarning kelajakda kim bo'lishlari haqida suhbat

**Muvaffaqiyatlar – qat'iyat va qunt-matonatning natijasi.** Mamlakatimizdagi katta zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish korxonalari. Virtual sayohat.

**Maqsad va imkoniyat.** Maqsadsiz odamning hechbir ishi unmaydi. O'ylab topishga qodir bo'lsang, bajarishga ham imkon topaolasan.

**Amaliy mashg'ulot. Serquyosh hur o'lka.**

#### II bob. ILM VA ODOB INSON ZIYNATI

(25 soat)

**Eng buyuk sharaf.** O'qish va o'rganishdek sharaflı va yoqimli narsa yo'q. Bilmaslik ayb emas, o'rganishga intilmaslik aybdır.

**Ilm olish odobi.** Inson bilimi bilan qadrlanadi. Hunar-hunardan rizqing unar. Hunar haqida. Milliy hunarmandchilik. Hunarning foydasi

**Vaqting ketdi - baxting ketdi.** Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish. Mening qiziqishlarim.

**Ehtiyotkorlik.** Birinchi yordam ko'rsatish. Uy jihozlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

**Kitob-bilim manbai.** Mutolaa odobi. Kitobning oilada va inson hayotidagi o'rni. Mutolaaning ahamiyati.

**Elektron axborotlar.** Kompyuterdagi kitoblari. Elektron kitoblarni mutolaa qilishni o'rgatish va ulardan unumli foydalanish.

**Kiyinish madaniyati.** Insonning tashqi ko'rinishi. Kundalik hayotda kiyiladigan kiyimlarga qo'yiladigan talablar. Tantanalar va boshqa tadbirlarda kiyiladigan kiyimlar.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchining kiyinish odobi

**Ozodalik – inson ko'rki.** Ozodalik, yurish-turish, shaxsiy buyumlarni asrab-avaylash va tartibli saqlashni tarbiyalash.

**Inson odobi bilan aziz.** Odob, tartib-intizom, andisha haqida. Barcha uchun majburiy bo'lgan odob qoidalari.

**Mehr-shafqat va muruvvat-insoniy fazilat.** Insonlarga bo‘lgan munosabatni tarbiyalash.

**Amaliy mashg‘ulot.** Hayvonlar bilan munosabat.

**Oilaviy qadriyatlar.** Oila qadriyatlar shakllanadigan eng muhim maskan. Milliy qadriyatlarga mening munosabatim.

**Keksalarni ardoqlash – insoniy burch.** Xalqimizga xos noyob qadriyat.

**Amaliy mashg‘ulot.** Men buvimga (bobomga) dastyorman.

**Mahalla va qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari.** Mahalla tushunchasi. O‘tkir Xoshimovning «Tomsuvoq» hikoyasi asosida suhbat.

**Amaliy mashg‘ulot. Mening mahallam.**“Mahallam mening faxrim” mavzusida suhbat.

### III bob. REJALI ISH - BEJOG‘LIQ ISH

(5 soat)

**Tejamkorlik va isrofgarchilik.** Tejamkorlik va isrofgarchilik haqida.

**Amaliy mashg‘ulot.** Ona tabiat ne‘matlariga oqilona va tejamkorona munosabatda bo‘lish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik.

**Suv va non qadri.** Suv va nonning qadri ne‘mat ekanligi haqida tushunchalar berish. Suvning birtomchisini ham isrofqilmaslik.

**Amaliy mashg‘ulot. Har narsaning o‘lchovi bor.** Tabiat ne‘matlarining uvoli haqida.

### IV SINF

#### I bob. INSONIYATNING MA’NAVIY MEROSI

(11 soat)

**Vatan madhi.** Bir hovuch tuproq hikmati. Vatan oldidagi burchlar. Vatanni doim sog‘inish va unga intilishi.

**Vatan bayrog‘ini baland tutaylik.** Sportchi Shahram G‘iyosovning Vatan bayrog‘ini baland ko‘tarish orzusi haqidagi hikoyasi.

**Koinotni zabt etgan bobomiz.** Bobolarga hurmat – Vatanga hurmat.– Ahmad al-Farg‘oniyning muvaffaqiyat sirlari. Bobolarimizning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi.

**Olmos to‘la hovli.** Inson baxti o‘z Vatanida. Vatan tushunchasining ahamiyati.

**Donolik saboqlari.** Insondagi mantiq, aql va qalbning ahamiyati. To‘g‘ri qaror qabul qilish va to‘g‘ri ish qilish saboqlari.

**Bobolardan meros yurt – iftixorim!** Madaniy merosga hurmat. Milliy meros bilan faxrlanish tuyg‘usi. Chet tilini biladigan o‘quvchining tarixiy shahardagi hikoyasi.

**Yurt tinchligi baxtimiz.** Tinchlikning mohiyati. Tinchlikni sinfxonasidan boshlash uchun to‘rt amal.

**Mard va jasur inson – Vatanning tayanchi.** Jaloliddin Manguberdi jasorati.

**Kitob buyuk donishmand.** Kitob ilm shamchirog'i. "Mening sevimli kitobim" mavzusida hikoya yozish. Kitob o'qishda amal qilish lozim bo'lgan to'rt qoida.

**Jamoaviy mashg'ulot.** "Bizga o'rgangan mavzular haqida xulosalarimiz". O'quvchilarning o'tilgan mavzular bo'yicha bilim va tushunchalari.

## II bob. INSON BO'LISH

(15 soat)

**Bilim – tengsiz xazina, muvaffaqiyat kaliti.** Kolumbiya universiteti professori Aziza Shonazarovanning muvaffaqiyat hikoyasi. Muvaffaqiyatga erishishda ilm olish va kitob o'qishning ahamiyati.

**Yaxshilik qilish hikmati.** Nima izlasang – shuni topasan.

**Muvaffaqiyatning tagzamini – halollik.** Taniqli ishbiarmon va dasturchi Bill Geytsning o'quvchilarga tavsiyalari.

**Barcha insonlar tengdirlar.** Qo'shniga yaxshilik qilish. Qadriyatlarga hurmat. Insoniylik fazilati. Anvar va Vera xolaning qo'shnichiligi.

**Ko'p millatli yurtda yashash baxti.** Millatlararo totuvlik. Ko'p millatli mahallada yashashning gashti.

**Insonlarga hurmat – kuchlilarga xos!** Himoyaga muhtoj kishilar va imkoniyati cheklangan insonlar bilan muomala qilish odoblari.

**Tejamkorlik va xasislik.** Xasis insonlar haqida hikoya. Tejamkorlikka oid burchlar.

**Halol va to'g'riso'z inson doim muvaffaqiyatga erishadi.** Halollik haqida hikoya. Halol va to'g'riso'z bo'lishning ahamiyati.

**Muvaffaqiyat – bir jamoaga aylanishda.** Jamoa bo'lib ishlashning ahamiyati. Kuch – birlikda. Do'stlikning ahamiyati.

**Fazilatlar – inson ko'rki.** O'qituvchining bir umrli sabog'i. Insonning dunyoqarashi uning ma'naviyatini belgilaydi.

**Tilga hurmat elga hurmat.** Til va el haqidagi ibratli hikoya. O'zbek tili haqida.

**Amaliy mashg'ulot.** "Tasavvur qiling Siz ..." 20 so'zdan iborat dunyo.

**Favqulodda vaziyatlar vaqtida to'g'ri harakatlanish.** Yong'in, zilzila vaqtida to'g'ri harakat qilish qoidalari.

## III bob. AHIL VA SOG'LOM OILA

(8 soat)

**Baxt oiladan boshlanadi.** Oila baxt qo'rg'oni. Oilaviy baxtning siri. Oila hamjihatligi.

**Oilaviy kitobxonlik farzand muvaffaqiyati uchun poydevor.** Kitob o'qishning muvaffaqiyat qozonishdagi o'rni. Kitob o'qish odobi, kutubxonada mutolaa odoblari.

**Ona – ulug‘ zot.** Onaga hurmatning ahamiyati. Ona haqida hikoya.

**Sog‘lik – katta boylik.** Hamza va Ahmadning hikoyasi. Sog‘lom ovqatlanish qoidalariga amal qilish.

**Sog‘lom va samarali hayot uchun zarur kun tartibi.** Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash. Kun davomida foydali mashg‘ulotlar bilan band bo‘lish.

**Insonni xotirlash – milliy qadriyat.** Inson xotirasi – muqaddas, inson qadri – ulug‘. 9-may – Xotira va qadrlash kuni. Sobir Rahimovning jasorati.

## V SINF

### I bob. MEN FUQAROMAN

(9 soat)

**Vatanga muhabbat.** Vatanparvarlik qayerda va qanday namoyon bo‘ladi? Vatanga muhabbatni nimalarda ko‘rasiz? Vatanimizning taniqli insonlari.

**Biz o‘z xatti-harakatlarimiz uchun javobgarmiz.** Mas‘uliyat nima va uni qanday his etish mumkin? Mas‘uliyatsizlik nima? Mas‘uliyatning inson hayotidagi o‘rni. Mahalla, inson, mas‘uliyat, vijdon.

**Inson huquq va majburiyatlari.** Bolaning huquq va majburiyatlari. Huquq va majburiyatlarga rioya qilishning ahamiyati. O‘zgalarning huquqlarini hurmat qilish.

**Ona tabiatni asrash - bizning burchimiz.** Nima uchun ekologik muammolar yuzaga keladi? Tabiiy resurslarni saqlashda sizning yordamingiz.

**Umumlashtiruvchi dars:** Chiqindilarsiz yashil bog‘lar sari. Bizning birinchi ekobog‘imiz. Atrof-muhitni ifloslantirmasdan maishiy chiqindilarni yo‘qotish (utilizatsiya qilish)ni o‘rganish.

### II bob. MEN INSONMAN

(7 soat)

**Bir-birimizni tushunishni o‘rganamiz.** Hissiyot va hayrixoxlik. Hayrixoxlik odobi.

**Mehribonlik qadri.** Mehribonlik nima? Nima uchun boshqalarga yordam berish juda muhim? Mehribonlik ko‘rsatish. Befarqlik, begonalashuv, e‘tiborsizlik, qahrilik, bag‘ritoshlik.

**Ezgu orzular ro‘yobi.** G‘alabalar va mag‘lubiyatlarning sabablarini tahlil qilish. Tashabbus ko‘rsatish va maqsadga erishish yo‘llari. Hohlayman – Bajara olaman – Menga kerak.

**Ishtiyoqim – mening yordamchim.** Ishtiyoq. Maqsadga erishishga to‘sqinlik qiladigan omillar. Maqsadni aniq qo‘yish, turli ma‘lumotlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish.

**Har bir inson hurmatga loyiq.** Matonat, jasorat – maqsadga elituvchi kuch. Intilganga tole yor. Ehtiyojlar va imkoniyatlar.

**Umumlashtiruvchi dars: Suv –hayot manbai.** Kundalik hayotimizda suvdan oqilona foydalanish.

### III bob. MEN VA MENING DO‘STLARIM

(9 soat)

**O‘zgalarga yordam berib, o‘zingda insoniylikni kashf et.** Yon atrofdagilarga yordam berish zarurati. Insonlarga qanday yordam berish mumkin?

**Hamkorlik – muvaffaqiyat garovi.** Jamoada ishlash. Boshqalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik, jamoada bo‘lish odobi.

**Jonivorlarga g‘amxo‘rlik qilish.** Hayvonlarga nisbatan rahm-shavqatli bo‘lish. Ularga g‘amxo‘rlik qilish va himoyalash. Davlatimiz tomonidan ham qarovsiz qoldirilgan hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilinadi va himoyalanaadi.

**Xulq-atvor qoidalari - hayot tarzi.** Xulq-atvor qoidalari va ularga amal qilish haqida. Jamoat joylarida o‘zini tutish. (Teatr, kinoteatr, jamoat transporti, dam olish maskanlari)

**Sog‘lig‘imiz – boyligimiz.** Sog‘lom turmush tarzi haqida. Organizmga salbiy odatlarning ta‘siri. Jismoniy mashg‘ulotlarning inson salomatligida tutgan o‘rni. Salomatlikni asrash yosh tanlamaydi.

**Umumlashtiruvchi dars:** Atrofimdagilarning qiziqishlarini qanchalik bilaman? Ijtimoiy so‘rov natijasida olingan ma‘lumotlarni miqdoriy va sifatli qayta ishlashni o‘rganish.

### IV BOB. MEN VA MENING AJDODLARIM

(9 soat)

**Xotira – abadiy, qadr – muqaddas.** Madaniy meros nima. Madaniy meros qanday bo‘ladi. O‘zbekiston va butun jahondagi madaniy meroslarni kim va nima uchun saqlaydi. Madaniy meros nima sababdan odamlar uchun bunchalik muhim sanaladi.

**Merosimiz – faxrimiz.** Moddiy va madaniy meroslar. Umummadaniy meroslarni asrash va saqlash zarurati. Madaniy meroslar-halqaro tashkilotlar e‘tirofida.

**Amaliy mashg‘ulot.** Diqqatga sazovor joylarda o‘zini tutish madaniyati. Ziyorat qilish odobi.

**Milliy an‘ana va qadriyatlarimiz.** Oila. Oilani hurmat qilish. ota-oanaga hurmat, oila a‘zolari bilan yaxshi munosabatda bo‘lish. oilaviy munosabatlar haqida.

**Kitoblarda olam sirlari.** Birinchi kitoblar qanday paydo bo‘lgan. Kitobning rivojlanish tarixi. Kitoblarni yaratilishi va unga sarflanadigan mehnat. Kitoblar “shifoxonasasi”. (Yirtilgan kitoblarni butlash).

**Umumlashtiruvchi dars: Tariximiz – boyligimiz.** O‘lkamizning madaniy merosiga g‘amxo‘rlik qilishning muhimligini tushunish va madaniy merosimizga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish.

### VI SINF

**O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:**

o‘z oldiga maqsad qo‘ya oladi, mustaqil fikrlaydi;

o‘z faoliyatini tahlil qiladi, baholaydi;

o‘zini-o‘zi rivojlantiradi;

o‘z majburiyatini bajaradi, muloqotga kirisha oladi;  
hamkorlikda ishlaydi;  
o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga odatlanadi;  
ma’naviy-axloq me’yorlariga rioya qiladi.

## I bob. MEN FUQAROMAN

(9 soat)

**Men oltin qoida bo‘yicha yashayman.** “Axloqning oltin qoidasi” iborasining ma’nosini ochib berish. Ijobiy va salbiy shaklda: boshqalar bilan o‘zingga nisbatan bo‘lishini xohlaganingdek muomala qil. O‘zingga nisbatan bo‘lishini xohlamaganlaringni boshqalarga qilma.

**Vijdon va burch bilan yashash.** Vijdonvaburchtushunchalari mazmunini ochib berish. Vijdonga muvofiq amal qilish, o‘ziga nisbatan va boshqalar bilan halol bo‘lish. Baxt – toza vijdon bilan yashashdir.

**Adolat hayot haqiqati sifatida.** Tenglik tushunchasini ochib berish, qanday qilib, odamlar “teng” bo‘lishlari kerak? Boshqaodamlarga nisbatan: oilada, sinfda, shaharda, mamlakatda teng va adolatli munosabatni manianglatadi. Adolat bilan taqsimlash nimani anglatadi.

**Minnatdorchilik yuragimda yashaydi.** Minnatdorlik nimani anglatadi va uni qanday mos usullar bilan ifodalash mumkin. Atrof-olamdan minnatdor bo‘lish. Boshqalarga o‘z minnatdorligimiz va ehtiromimizni qanday ko‘rsatishimiz mumkin? Kimdan minnatdor bo‘lishimiz shart?

**Kechirimlilik kuchlilar xislatidir.** Xafagarchilik va kechirim nima? Nega xafagarchilikni saqlab yurmaslik va kechirishni o‘rganish juda muhim? Kimdan va qanday kechirim so‘rash kerak.

**Sabr-toqat oxirigacha borishni anglatadi.** Sabr-toqat nima. Nega sabrli bo‘lish muhim? Sabr-toqat nimalarda namoyon bo‘ladi va qanday qilib, sabr-toqatli bo‘lishni o‘rganish mumkin?

## II bob. MEN INSONMAN

(9 soat)

**Ona yurtim-oltin beshigim.** Xalqimizning iftixoriga aylangan muqaddas maskanlar. Hayotimizni yaxshilashga hissa qo‘shish.

**Mening mahallam – mening faxrim.** Mahallamni obodligida mening o‘rnim. Obod maktab. Maktabim – faxrim.

**Hulq-atvor qanday bo‘lsa, oqibat ham shunday bo‘ladi.** Harakat va qahramonlik o‘rtasidagi farq nimada. Noo‘rinxatti-harakatnimavauningoqibatlarini.

**Bilim ol hunar tanla!** Bilim, malaka va ko‘nikmalarning o‘zaro bog‘liqligi. Tajriba qanday paydo bo‘ladi va to‘planadi. Bizning yurtimiz qanday hunarmandchilik bilan mashhur. Kasblar qanday va nima uchun paydo bo‘ldi. Kasb turlari. Zamondoshlarimizning kasbiy qahramonlinliklari. Hunar – hunardan baxting unar.

## III bob. MEN VA MENING DO‘STLARIM

(9 soat)

**Zamonaviy texnologiyalar ezgulik xizmatida.** Raqamli olam, raqamli media, texnologiyalardan foydalanishda muvozanatga erishish.



**Salomatlik - ulkan boylik.** Bezovtalanish, stress, xavotir, tashvishlanish, hamdard bo'lish, jidamlilik, jasorat

**Do'stlik va mehr-oqibat.** Do'st va tanish inson, do'stona munosabat, do'stlikning fazilatlarini

**Rostgo'ylik, halollikva texnologiyalar.** Rost va yolg'on so'zlash. Rost va yolg'on so'zlashning oqibatlari. Rostgo'ylikning qadr-qimmati.

**Ishonchli va qalbaki axborotlar.** Rostgo'y va qalbaki axborotlar. Rostgo'y va qalbaki axborotlarni farqlay olish. Qalbaki axborotlarning oqibatlari.

#### **IV bob. OILA KICHIK VATAN**

(7 soat)

**Qadriyatlar beshigi.** Qadriyatlarining asosi oilada shakllanadi. Barcha ezgu sifatlar, fazilatlarining makoni oila ekanligi.

**Amaliy mashg'ulot.** Farzand oila ko'z gusi. O'quvchilar bilan oilaviy qadriyatlar haqida suhbat.

**Oilaviy kitobxonlik.** Ilm bilmagan narsalarni bilganlardan o'rganmoqlikdir.

**To'g'ri ovqatlanish qoidalari.**

**Ekologik xavflar kelajak zavoli.** Tabiiy ofatlar yuz berganda insonlarning to'g'ri harakatlanishi. tabiiy ofatlar ro'y berganda fuqarolarning o'zini tutish odobi.

#### **VII SINF**

##### **I bob. OLIY MAQSAD**

(5 soat)

**Eng yaxshi safar Vatan bo'ylab safardir.** Vatan bo'ylab safat qililishning foydali tomonlari. [uzbekistan360.uz](http://uzbekistan360.uz) veb resursidagi yurtimizning diqqatga sazovor joylariga virtual sayohat qilish.

**Ezgu maqsadlar bilan yashah.** Maqsad nima? Maqsadimni qanday aniqlayman? Maqsadga olib boruvchi yo'l haqida hikoya.

**Muvaffaqiyat-qat'iyat va qunt-matonatning natijasi.** Istak, orzu va o'z g'alaabsini aniq his qilish kishini maqsadga olib boradi.

**Umr – umid – sinov – imkoniyat.** Hayotning har lahzasi go'zal, umrning har dami g'animat. Hayotning o'zi muallim. Inson irodasi.

**Tabiatni asrash – hayotni asrash.** Loyihaviy o'qitish darsi.

##### **II bob. AXLOQ VA TARBIYA ASOSLARI**

(7 soat)

**Axloq – fazilatlarining eng yaxshisi.** Xulqning eng yaxshilari. Eng yaxshi fazilatlar haqida: kulib turmoqlik, shirin so'zlamoqlik, xushmuomila bo'lmoqlik haqida.

**Inson odobida aks etuvchi fe'l-atvor.** Rostgo'ylik, va'daga vafo qilish, xushmuomilalik, kechirimlilik, adolatsizlik haqida.

**Insonlarni birlashtiruvchi umuminsoniy xislatlar.** Baxtli bo'lmoq, jamoaviylik, yaxshilik, iroda, imkoniyatlardan foydalanish, o'zgalar mulknini hurmat qilish, o'zgalar tajribasini o'rganish.

**Baxtiyor hayotning ustunlari.** Axloqning uch asosi. Hissiy, aqliy va xulqiy ustun haqida.

**Amaliy mashg'ulot.** Hammasi o'z qo'limizda.

### **III BOB. MUOMILA VA MULOQOT QILISH ASOSLARI**

(6 soat)

**Sharqona muomila odoblari.** Kim bilan qanday muomila qilinadi? Muloyimlik, xokisorlik, shikastanafas, tavozelik haqida.

**Kirishimlilik muvaffaqiyat garovi.** Yangi jamoaning tartib-qoidalari.kirishimli odamga xos fazilatlar.

**Samarali muloqot qilish usullari.** Samarali muloqot qilishning ahamiyati. Nutqni rivojlantirish sirlari, kim bilan qanday muomila qilish kerak? Ota – ona, ustoz, tengdosh bilan muloqot qilish odobi.

**Amaliy mashg'ulot.** Jamoaviy mashq: "Buzuq telefon o'yini".

### **IV bob. HUSHYORLIK VA OGOHLIK**

(6 soat)

**Hushyorlik va ogohlik.** Hozirgi vaqtda aloqa va axborot almashish vositalarining kuchayib, yagona tizimga aylanib borayotgani. "Ommaviy madaniyat"ning inson qalbi va ongiga ta'siri.

**Amaliy mashg'ulot. Ko'zga ko'rinmas xatarlar.** (media dars)

**Befarqlik va loqaydlik tinchlikka xavf soladigan illat.** Xudbinlik va loqaydlik, hasad va sotqinlik kabi illatlar jamiyat hayoti uchun xavfli. Bunday illatlardan forig' bo'lish shartlari.

**Amaliy mashg'ulot. Biz ezgulik tarafdorimiz.** Illatlarga qarshi immunitet hosil qilish.

**Mahallamiz farovonligi - bizning farovonligimiz.** Loyihaviy o'qish darsi.

### **V bob. BIRLASHGAN O'ZAR**

(4 soat)

**Yaxshilik yo'lida hamkorlik.** Mening sinfdoshlarim va ularning oldidagi mas'uliyatim. Maktabim mavqeining rivojida mening o'rnim.

**Jamoda bo'lish – burch, uning mehrini qozonish sharaf.** O'quvchilarning jamoda o'z o'rnini anglashi. Jamoa a'zolari bilan hamjihatlik.

**Har bir ishda hamkor izla.** Yolg'izlik halokat keltiradi. Insonning orzulari ro'yobga chiqishida atrofdagilarning o'rnini.

**Do'stlarimiz bilan tarixiy-madaniy merosni o'rganamiz.**Loyihaviy o'qitish darsi.

### **VI BOB. SOG'LOM MUHIT - SOG'LOM TARBIYA**

**Farzand tarbiyasida oila muhitining o'rnini.** Ota-ona – oila ma'naviy muhitining ustunlari. Odob-axloqning milliy me'yorlari.

**Oilaviy baxtda hikmat ko'p.** Oiladagi axloq-odob me'yorlari – inson hayot tarzining poydevori.

**Sog'lom farzand yurt kelajagi.** Shaxsiy gigiena. Reproduktiv salomatlik. Sog'lom bola-sog'lom oila mevasi. Oila a'zolarining bir-biriga g'amxo'rliqi.

**Biz bilgan qahramonlar.** Loyihaviy o‘qitish darsi.

## VIII SINF

### **O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:**

kelajak maqsadlarini amalga oshirish uchun to‘g‘ri qaror qabul qiladi;  
maqsadiga erishish uchun jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantiradi;

o‘z faoliyati davomida kommunikativlik, faollik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik ko‘rsatadi;

axborot olish, uni tahlil qilish, mediamadaniyatiga ega bo‘ladi;

jamoat ishlarida faollikni namoyon qiladi;

sog‘lom turmush tarziga, jamiyatda o‘rnatilgan xulq-atvor normalariga, umuminsoniy va milliy madaniyatga rioya qiladi;

faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qiladi.

## **I bob. TINCH VA XOTIRJAM YASHASH BAXTI**

**(3 soat)**

**Tinchlik eng qimmat boyluk.** Tinchlik uchun har birimiz mas‘ulmiz! Tinchlik uchun kurashmoq kerak. Baxtiyor va hotirjam hayot.

**Millatlararo bag‘rikenglik.** Bu aziz Vatan – barchamizniki. Xalqimizga xos bo‘lgan do‘stlik, birodarlik fazilatlarini. Millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi illatlar.

**Vatan oldidagi burchimiz.**

## **II bob. O‘ZLIKNI ANGLASH**

**(5 soat)**

**Hayotda xohlayotganlarimizni anglash.** Hayotda oldiga maqsad qo‘yishni o‘rganish. Nima uchun yashayotgani, qilishi lozim bo‘lgan harakat va maqsadlarni aniqlash.

**Qat‘iy fe‘l-atvorning muhimligi.** Qat‘iy fe‘l-atvorning tarkibi va ularning ahamiyati. Fe‘l-atvorda irodaning o‘rni.

**Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish.** Hissiyotlarni anglash, ularni nazorat qilish usullari.

**Tushkunlik va bezovtalikning sabablari.** Insonning tushgunligiga sabab bo‘luvchi omillar va ularning sabablari. Tushkunlikning kelib chiqish omillarini anglash.

**Tushkunlik va bezovtalikni boshqarish.** Tushkun holatdan chiqib ketish va o‘z-o‘ziga yordam berish yo‘llari.

## **III bob. O‘ZGARISH, MASHAQQATLARNI YENGISH**

**(8 soat)**

**O‘zgarishning ahamiyati.** O‘zgarish zarur bo‘lgan holatlar. O‘zgarish uchun zarur omillar.

**Mashaqqatlarni yengib o‘tish.** Qiyin vaziyatlarda o‘zini himoya qilish va maqsadli rejalarni amalga oshirish.

**Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi.** Tanqidning foydali tomonlari. Tanqidni qabul qilishning ahamiyati. Tanqidiy fikrlash qobiliyatining tarkibi.

**Amaliy mashg'ulot.** Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar. Jamoa bo'lib ishlash orqali bir-biridagi tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmasini qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirishga oid vazifa.

**Qiyin vaziyatlarda o'zini ilhomlantirish.** Qiyin vaziyatda inson kuch olishi va ilhomlanishi mumkin bo'lgan omillar. O'z-o'zini olg'a boshlashga kuch topa olish yo'llari.

**To'g'ri qaror qabul qilish – yarim muvaffaqiyat.** Qaror qabul qilishning ahamiyati. Insondagi to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasining ahamiyati.

#### **IV bob. ILM-FAN YARATUVCHANLIK MEVASI**

**(9 soat)**

**Fan–texnika sirli tilsim.** Ilmiy-texnika asri. Zamonaviy texnologiyalar (NouHau)dan foydalanish madaniyati. Axborot olish, ega bo'lish va unga bo'lgan mas'uliyat.

